XALQ DEPUTATLARI ISHTIXON TUMANİ KENGASHINING QARORI

2023 - yil 31 - oktabr VI-110-193-7-95-K/23 Ishtixon tuman hokimligi

Tumandagi geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risida

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunining 4-, 6-, va 10-moddalariga, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Respublika toponimika xizmatining 2023-yil 11-sentabrdagi 250-sonli ekspertiza xulosasiga, Samarqand viloyati hokimligi huzuridagi Geografik obyektlami nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining 2023-yil 28-avgustdagi 13-13/3183-sonli murojaatnomasiga, tuman hokimining maslahatchisi O.Tojixonovning 2023-yil 26-oktabrdagi 555/01-20-sonli bildirgisiga, tuman Adliya bo‘limining 2023-yil 31-oktabrdagi 5/27-23-sonli xulosasiga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, 110-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Respublika toponimika xizmatining 2023-yil 11-sentabrdagi 250-sonli ekspertiza xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha komissiyaning tumanda mavjud bo‘lgan, Jami; 21 ta geografik obyektlarni (qabriston) larni nomlash va qayta nomlash ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (O.Tojixonov) mazkur geografik obyektlarni Davlat reyestriga kiritish choralarini ko‘rsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (M.Tursunov), “Ishtixon ovozi” gazetasi bosh muharriri (G.Usmonova) mazkur qarorni o‘rnatilgan tartibda e’lon qilinishini hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishi tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, aloqa, kommunal xo‘jaligi masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Abdug‘aniyev), tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (O.Tojixonov) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **K.E.Yavkochdiyev**

Xalq deputatlari Ishtixon tuman Kengashining
2023-yil 31-oktabrdagi
VI-110-193-7-95-K/23-son qaroriga
1-ilova

Tumandagi nomsiz ko‘chalarni nomlash bo‘yicha TAKLIFLAR

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Respublika ekspertiza komissiyasining xulosasi
1.	Qabriston	Chaqar mahallasi	Nomsiz	Qoraxo‘ja	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	Qabriston	Xalqobod mahallasi	Nomsiz	Shaldiroq	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3.	Qabriston	Zarband mahallasi	Nomsiz	Eshonto‘p	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4.	Qabriston	Zartepa mahallasi	Nomsiz	Ishtepa	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
5.	Qabriston	Yangikent mahallasi	Nomsiz	Jonrohat	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
6.	Qabriston	Ko‘ktepa mahallasi	Nomsiz	Arabqishloq	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
7.	Qabriston	Bo‘ronxo‘ja mahallasi	Nomsiz	Qorachuval	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
8.	Qabriston	Boyto‘bi mahallasi	Nomsiz	Sartoqchi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
9.	Qabriston	Chag‘atoy mahallasi	Chag‘atoy	Yuqori Qo‘ng‘irot	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
10.	Qabriston	Chimqo‘rg‘on mahallasi	Kamar-1	Kesganjar	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
11.	Qabriston	Minglar mahallasi	Minglar	So‘fi Olloyor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
12.	Qabriston	Mirzaqul mahallasi	Do‘simtepa	Nomozgartepa	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
13.	Qabriston	Shayxlar mahallasi	Shayxlar	Aynoqxo‘ja	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
14.	Qabriston	Yangikent mahallasi	Mulkota	Mulk	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
15.	Qabriston	Qayirma mahallasi	Qizil	Qizilqishloq	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
16.	Qabriston	Chinortep mahallasi a	Oqtosh	Kichik To‘qmoq	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
17.	Qabriston	Qiyot mahallasi	Saidxo‘ja	Yuqori Chinoq	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
18.	Qabriston	Yangiravot mahallasi	Borloq	Burloq	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
19.	Qabriston	Zarband mahallasi	Qonjig‘ali	Xonjig‘ali	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
20.	Qabriston	Zartepa mahallasi	Qo‘ng‘irot	Quyi Qo‘ng‘irot	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
21.	Qabriston	Gulobod mahallasi	Quljamol	Quljamon	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.